

### Topshiriqlar:

1. Quyidagi meva va urug' nomlarining o'zbekcha, ruscha, inglizcha va lotincha variantlarini yozing. Har bir nomning kelib chiqishini tahlil qiling va semantik jihatdan ajrating. (Botanika, horijiy tillar va lingvistika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq.)

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Lotincha	Etimologik tahlil
Olma	Яблоко	Apple	Malus domestica	"Malus" lotinchada "olma" degan ma'noni bildiradi. "Domestica" – madaniylashtirilgan.
Gilos	Вишня	Cherry	Prunus avium	"Avium" lotincha "qushlar" degan ma'noni bildiradi, chunki gilosni qushlar ko'p yeydi.

2. "Urug'larning tarqalishi va atrof-muhit" (Botanika, ekologiya va geografiya fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq.) Quyidagi mevalar va urug'larning qaysi ekologik sharoitda yaxshi rivojlanishini aniqlang. Ularning tarqalish mexanizmini tavsiflab, ekologik ahamiyatini tushuntiring.

Meva turi	Tarqalish usuli	Tarqalish geografiyasi	Ekologik ahamiyati
Qayin urug'i	Shamol orqali	O'rmonlar, dasht zonalari	O'rmonlarning tabiiy tiklanishida muhim rol o'ynaydi.
Kokos yong'og'i	Suv orqali	Tropik orollar	Okean orqali uzoq hududlarga tarqalib, yangi o'simliklarni paydo qiladi.

3. (Botanika va matematika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq.) "Meva va urug'larning shakli va fraktal geometriya" Quyidagi mevalarning tashqi shaklini tahlil qiling va ularning geometrik xususiyatlarini aniqlang. Agar shakl fraktal tuzilishga ega bo'lsa, bu qanday geometrik xususiyatlar bilan bog'liq ekanini tushuntiring.

Meva turi	Geometrik shakli	Fraktallik darajasi	Misollar
-----------	------------------	---------------------	----------

Ananas	Spiral shakl	Yuqori	Fibonacci ketma-ketligi bo'yicha o'sish
Brokkoli	G'oladek tarmoqlangan	Juda yuqori	Fraktal tuzilishga ega o'simlik